

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISHNING YO‘LLARI

*Isoxonova Mashhura*  
*Qo‘qon universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni badiiy asrga yo‘naltirish, ularda badiiy asar haqidagi ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘qilgan badiiy asarlarini erkin tahlil qila olish va ularni qayta hikoyalash orqali so‘z boyliklarini oshirish haqida ma‘lumotlar berilgan. O‘quvchilarda badiiy asar tahlil jarayonida o‘z fikrini erkin bayon qilish va so‘z boyligini oshirishning ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Tahlil, maqsad, metod, munozara va axloqiy fazilat

**Аннотация.** В настоящее время даются сведения о том, как ориентировать учащихся младших классов в художественный возраст, формировать у них умения о художественном произведении, уметь свободно анализировать прочитанные художественные произведения, увеличивать словарный запас путем их пересказа. Проанализирована важность свободного выражения своего мнения и увеличения словарного запаса учащихся при анализе художественного произведения.

**Ключевые слова:** Анализ, цель, метод, обсуждение и моральная добродетель

**Abstract.** Currently, information is given on how to guide elementary school students to the artistic age, to form their skills about the artistic work, to be able to freely analyze the read artistic works, and to increase their vocabulary by retelling them. The importance of freely expressing one's opinion and increasing the vocabulary of students during the analysis of a work of art was analyzed.

**Keywords:** Analysis, purpose, method, discussion and moral virtue

Har bir odam yoshi, kasb-koridan qat‘i nazar, olamni bilishni istaydi va undagi bu intilish so‘nggi nafasigacha davom etadi. Adabiyot va san‘at esa kishilarning olamni idrok etishi, hayot hodisalarini anglashiga yaqindan ko‘maklashadi. Bu jihatdan hech bir fan san‘at va adabiyot bilan raqobat qilolmaydi. Barcha fanlar birlashganida ham odamlarga hayot murakkabliklari, inson dunyosi jumboqlari to‘g‘risida adabiyotchilik tasavvur berolmaydi. Shu bois O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov jamiyat taraqqiyotida adabiyot alohida o‘rin tutishini qayd etib, “**Adabiyotga e‘tibor – ma‘naviyatga, kelajakka e‘tibor**” ekanligi, uning vositasida yuksak ma‘naviyatga erishish mumkinligi, yuksak ma‘naviyat esa hamisha yengilmas kuch bo‘lib qolishini ta‘kidlagan edi. Adabiyotshunoslik yurtboshimiz “Insonni, uning ma‘naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita” deb ta‘riflagan so‘z san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari,

uning qonuniyatlarini ma'lum etish orqali kishilarning odam va olam to'g'risidagi tasavvurini boyitib, ularning ma'naviyati, ruhiyatini o'stiradi. Jamiyat esa hamisha odamlarning ong-tafakkuri, didi, dunyoqarashiga bevosita bog'liq holda taraqqiy etadi. Adabiyot va san'at ham xuddi siyosat, iqtisod, fan-texnika singari jamiyat hayotiga hamisha ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham hozirgi yoshlarga ko'proq badiiy asarlarni ko'proq o'qish va ularni tahlil qilish vazifasi yuklatilmoqda.

### **Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:**

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Adabiyot darslarida asar matnini o'zlashtirish mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishning eng muhim jihatlaridan. Tahlil qilinayotgan she'riy yoki nasriy asar mazmunini puxta o'zlashtirmay turib, uning tahliliga kirishish-foydasiz mashg'ulot. Chunki o'quvchi asar mazmunini atroflicha anglab yetgandagina uning badiiy tahlilini o'zlashtira oladi. Xususan, badiiy asar qahramonlariga xos xususiyatlarni yoki asarning badiiy mohiyatini ochishga xizmat qiladigan metodlar sirasida **"Anogramma"**dan foydalanish ham ahamiyatlidir.

Ma'lum badiiy asarni o'rganishda va uni tahlil qilishda **"Ikki qismli kundalik"** texnologiyasini qo'llash ijobiy natija beradi. **"Ikki qismli kundalik"** texnologiyasi – bu pedagogik texnologiya bo'lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o'qib chiqilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi. Maqsad esa o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otish, mantiqiy fikrlash va yozma nutqni rivojlantirish. Masalan, Alisher Navoiyning **"Farhod va Shirin"** dostonini tahlil etishda quyidagicha yo'l tutiladi.

Safayeva Xurshida Ibroximovna Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisining metodi edi.

“Bu metod asosida o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib o‘quvchilarda badiiy asar tahlilini o‘tkazish mumkin”- deydi.<sup>1</sup>

Metodist S.Husayno‘g‘li shunday yozadi: “Adabiyotshunoslik bilan maktab tahlili o‘rtasida chegara qo‘yish yoki ulardan birini boshqalarga butunlay bog‘liq deb hisoblash to‘g‘ri emasligi aytilganlardan ko‘rinib turibdi. Ular o‘rtasidagi munosabat nafaqat bo‘ysunish shaklida, balki hamkorlik shaklida ham bo‘ladi». Maktabda badiiy asarlarni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga e‘tibor qaratish lozim: yoki ulardan birini boshqalarga butunlay bog‘liq deb hisoblash to‘g‘ri emas. Ular o‘rtasidagi munosabatlar faqat bo‘ysunish tarzida emas, balki hamkorlik shaklida ham bo‘ladi.”. Maktabda badiiy asarlarni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga e‘tibor qaratish lozim: yoki to‘g‘ri emas. ulardan birini boshqalarga to‘liq bog‘liq deb hisoblang. Ular o‘rtasidagi munosabatlar faqat bo‘ysunish shaklida emas, balki hamkorlik shaklida hamdir». Maktabd badiiy asarlarni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarni hisobga olish kerak:

1. “Ideallik tamoyili.
2. Tarixiylik tamoyili.
3. Badiiy asar mazmuni va shaklining o‘zaro ta’siri va shartlilik printsiplari.
4. Pedagogik tamoyil.
5. Tahlil yo‘llari va usullarini kelishish tamoyili”.<sup>2</sup>

Qadimgi yunon faylasufi Arastu shunday deb yozgan edi: “Yozuvchilar odamlarning hayoti, xatti-harakati va faoliyatiga taqlid qilsalar, u odamlar hamisha yaxshi yoki yomon bo‘ladilar”. Inson xarakteri har doim yaxshi va yomonga ko‘proq moyil bo‘ladi. Insonlar har doim yaxshiligi, gunohlari, yaxshi va yomon ishlariga qarab tanlanadi. Shunday qilib, biz asarlarda yo o‘zimizdan ham yomonroq yoki yaxshiroq bo‘lganlarga yoki o‘zimizga o‘xshaganlarga taqlid qilamiz.”. Badiiy asarlarda insonga ta’sir etuvchi his-tuyg‘ular, fikr va orzular mujassamlashgan. Masalan, asarlarimiz qahramonlari bo‘lmish Shirin va Leylining ma’yus hayoti qizlarimiz uchun hayot saboqidir.<sup>3</sup>

Yuqorida bir qancha taniqli allomalar badiiy asar tahlili haqida o‘z fikr va mulohazalari bundan tashqari metodlari haqida bayon qilib o‘tgan. Shuni aytib o‘tish joizki, o‘quvchilarni badiiy asar qaharamonlariga, undagi voqealikalarga va muallifning ichki kechinmalariga shu bilan bir qatorda bu badiiy asrani o‘qigan insonlarning his-tuyg‘ularini inobatga olsak badiiy asra tahlili ancha osonroq o‘lishi mumkin. Bilamizki, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari badiiy asrani tahlil qilishda adardagi qahramonlarni yaxshi va yomonga ajratadi. Hozirgi kunda maqsad ham shu. 4-sinflarda o‘tkazilgan metod haqida: bu- “Rolli o‘yin” metodidir. Rolli o‘yin metodiga

<sup>1</sup> Gadjev A. Metodika prepodavaniya azerbaydjanskoy literatury. Baku, «Prosveshchenie», 2003, 320 str.

<sup>2</sup> Gadjev A. Metodika prepodavaniya azerbaydjanskoy literatury. Baku, «Prosveshchenie», 2003, 320 str.

<sup>3</sup> Gadjeva G. Vozmojnosti primeneniya IKT v uchebnom protsesse. // Uchebnyy reja. Baku, 2015 yil, №1. 4, s. 60-61

biro-bir asarni olamiz. Misol uchun: “Zumrad va Qimmat”. O’quvchilarga bu asar haqida o’qib eshitirladi. O’quvchilardan asar qahramonlarga yetarli darajada o’quvchilar tanlab olinadi. O’quvchilarga voqealar ketma-ketligi asosida asarni jonlantirish vazifasi beriladi. O’quvchilarga roller bo’lib beriladi. O’quvchilar sahnada “Zumrad va Qimmat” asarini gavdalantirish lozim. Asarni sinfdagi o’quvchilarga taqdim etgandan so’ng, asar tahlili boshlanadi. O’quvchilardan:

- ✓ Zumraga ta’rif bering?
- ✓ Qimmatning Zumradga bo’lgan munosabatini aytib bering;
- ✓ Asarda salbiy va ijobiy qahramonlarni sanab bering?
- ✓ Qimmatning onasi nima uchun Zumradga bunday munosabatda?
- ✓ Sizningcha Zumradning otasi qizini himoya qila olganmi?
- ✓ Zumradagi yaxshi va yomon fazilatlarini aytib bering;
- ✓ Agar Qimmat ham Zumradga o’xshab mehnatkash bo’lganda voqealar qanday bo’lar edi?
- ✓ Bu asarga sizning fikrlaringiz qanday?
- ✓ Muallif bu asar bilan siz o’quvchilarga nima demoqchi bo’lgan?
- ✓ Rol ijro etgan o’quvchilarda qahramonlariga nisbatan qanday hissiy-kechinmalar paydo bo’ldi
- ✓ Nima deb o’ylasiz, rol ijro etgan o’quvchilar berilgan rollarga qanday yondoshishdi?

O’quvchilardan bu savolni berib, sinf ichida munozara o’tkazish lozim. Savollarga o’quvchilar javob berishlari, asar qahramonlari haqida fikrlarini aytitishi kerak. Bu rolli metod orqali o’quvchilarda asarning mazmunini esda saqlash, asarni tahlil qila olish, nutq boyligi hamda rolli ijro tufayli san’atga qiziqtirish mumkin.

Bilamizki, boshlang’ich sinf o’quvchilarining aksariyati nutqi kamchiligi bor, uyalchang yoki bo’lmasa o’z fikriga ega bo’lib turib ham yonidagi sherigi orqali bayon qiluvchi o’quvchilar bor. Badiiy asar tahlillarida yuqorida berilgan turli xil metod orqali darsni mustahkamlash ayni muddao. Bu o’quvchilarning nutqiy kopitensiyalarini hamda ijodkorligini yanada yaxshi shakllantirishi va rivojlantirishi mumkin.

“Rolli o’yin” metodi orqali bu diagrammada o’quvchilarda asarda berilgan qahramonlarning ijobiy va salbiy jihatlariga berilgan javoblari aks ettirilgan.

Bu metod 6-maktab 4-D sinfida o’tkazilgan. Bu sinfdagi 37 ta o’quvchi ta’lim oladi. Hamma o’quvchilar asar tahlil qilinishida ishtirok etdi. Yuqorida ko’rinib turibdiki, o’quvchilarning deyarli barchasi Zumradga ijobiy baho bergan. Ammo 10 % o’quvchi esa Qimmatning ham ijobiy tomonlari borligini aytdi. Qimmatning ijobiy tomoni-uning tashqi ko’rinishida ekanligi juda ham keng munozaraga sabab bo’ldi. O’quvchilarda munozara jarayonida qisman Qimmatga bo’lgan salbiy fikrlari o’zgargandek edi. Endi esa Zumrad va Qimmatga berilgan salbiy fikrlar haqida so’zlar

ekanmiz, o'quvchilardan deyarli 80% o'quvchi Qimmatni qoraladi. Qolgan 20% ni esa Zumradga berishdi. Negaki, Zumrad o'z fikrini ayta olmaydigan, o'z haq-huquqini bilmaydigan qiz-deb aytishdi. O'quvchilarning bergan fikrlari asarni qanchalik yaxshi o'zlashtirganligidan dalolat.

“Zumrad va Qimmat” asarida muhokamaga sabab bo'lgan narsa bu-otasining qizi Zumradni himoya qila olmasli, Onasiga gapi o'tmasligi. Qimmatning qiliqlariga onasining ijobiy qarashi va Zumradning yuvvoshli haqida bo'lib o'tdi. O'quvchilarning askariyati ko'proq otasining qizini himoya qila olmasligi haqida bo'ldi. Otasining uydagilarga bunday munosabatda bo'lishi, uning uyda o'rni yo'ligidan dalolatligi o'quvchilar tomonidan uzoq suhbatga sabab bo'ldi. Onasining ham qizi Qimmatga yaxshi munosabatda bo'lishi, o'quvchilarda salbiy fikr paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Ona hech achon farzandalarini ajratmasligi ularning darajalarini teng bo'lishi kerakligi, yaxshi va yomonga ajratmasligi, ularga bir xil munosabatda bo'lishi kerakligini aytib o'tishdi. Eng katta munozara bu Zumratning yuvvoshligi hamda indamasligi bo'ldi. O'quvchilar:

### **Nima uchun Zumrad ota-onasiga gapira olmaydi?**

Singlisi Qimmatga gapira olmasligi haqida ko'plab munozaralarga sabab bo'ldi. O'quvchilardan turli xil javoblar va gaplar chiqdi. Munozaralarga asos bo'lgan savollarga o'qituvchi hamda o'quvchilar bilan birgalikda javob topildi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda badiiy asar tahlil qilishda turli xildagi metodlardan foydalanish, o'quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etishi haqida bilib olish mumkin. Bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh jihatdan o'yin-qaroq bo'lishadi. Dars davomida ularning diqqatini 20 minut darsga qaratish mumkin. Qolgan minutlarda esa o'quvchilar darsdan zerika boshlashadi. O'quvchilarga dars jarayonlarida didaktik metodlar hamda rolli o'yinlarga xos metodlardan foydalanish foydalidir. Metodlar orqali o'quvchilar darsni o'zlashtirib olishi, mustahkamlashtirishi hamda takrorlashi mumkin. Metodlar bilamizki, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladigan jarayondir. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida turli xil metodlar pedagoglar tomonida ishlab chiqilgan. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar tahlilining maqsadi - asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad) asar mazmunini bilishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gadjiev A. Metodika prepodavaniya azerbaydjanskoy literatury. Baku, «Prosveshchenie», 2003, 320 str.
2. Gadjiev A. Metodika prepodavaniya azerbaydjanskoy literatury. Baku, «Prosveshchenie», 2003, 320 str.
3. Gadjieva G. Vozmojnosti primeneniya IKT v uchebnom protsesse. // Uchebnyy reja. Baku, 2015 yil, №1. 4, s. 60-61

4. Gasanli B. Metodika prepodavaniya adabiyoti. Boku, 2014 yil.
5. SI Jumanova, G Mullaboyeva. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda Sharq va G'arb allomalarining qarashlaridan foydalanish Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 445-451
6. SI Jumanova, D Asqarova.(2023). Maktabgacha ta'limda tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ fikrlashini o'stirishda stem ta'limining o'rni Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 377-381
7. Jumanova , S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
8. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
10. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
11. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
12. <https://prezi.com/p/ef9k22dhcxyk/badiiy-asar-tahlili/>